

MUZEY - TA'LIM MAYDONI.

Salomova Sayyora Toshpulatovna.

Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi xodimi

Annotatsiya: Yoshlarimizning har biri o‘z avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabi, yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini va o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan Vatanining tarixini bilishi, o‘zligini anglashi muhimdir. Shu o‘rinda yurtimizdagi muzeylar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: muzey, davlatlar, yoshlar, o‘quvchi-yoshlar, maktab.

Darhaqiqat, jamiyatning rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan ta’lim va uning jamiyatdagi rolga bog‘liq. Muzeylar - o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik.

XXI-asrda muzey muhiti o‘zining ochiqligi tufayli ta’limning innovatsion vositasiga aylanib bormoqda. Muzeylar yosh avlod uchun katta ahamiyatga ega. Chunki, muzeylarimizda bizning shonli va sharafli o‘tmishimiz, tariximiz aks etgan. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov : “Tarixsiz – kelajak yo‘q”,- deganlaridek, tariximizni bilish, uni o‘rganish bizning oliy va sharafli burchimizdir. Bunday paytlarda, bizga tarixiy muzeylarimiz katta yordam beradi. Muzey o‘tmish va hozirgi, yorqin imkonini beradi tarixiy jarayonlarni tasvirlab beradi.

Ayrim rivojlangan davlatlarda muzey eshigi oldida navbat kutishlari haqida eshitganimiz bor. Negaki, muzey boy ma’naviy ozuqa beradi, kishi ruhini tozalaydi, tasavvurini kengaytiradi. Xususan, xalqimizning bebaho tarixiy merosidan yoshlarimizni bahramand etish hayotiy zaruratdir.

Shundan kelib chiqqan holda, shahar atrofidagi maktablardan birida yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida anonim so‘rov o‘tkazdik. U ham ko‘plab o‘g‘il-qizlarning Navoiy viloyatida qanday muzeylar borligini bilmasliklarini ko‘rsatdi. Bolalar orasida ota – onasi bilan muzeyga tushganlari barmoq bilan sanarli darajada oz ekanligi ravshan bo‘ldi.

Menimcha, yoshlarga muzey haqida dastlabki tushunchalarni berish oiladan boshlanishi, u maktabgacha ta’lim muassasalari va maktabdagi ta’lim – tarbiya jarayonida davom ettirilishi kerak.

Muzeylar bilan hamkorlik maktablarga asosiy ta’lim vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda mamlakatimizda muzey va ta’lim muassasalari o‘rtasida tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan. Asosan, muzeylarga tashriflar darsdan tashqari pedagoglarning bo‘sh vaqtlarida amalga oshiriladi. Biroq, maktabda o‘tilgan mavzularni yanada mustahkamlash uchun o‘quvchilarning muzeylarga tashrifini bevosita dars jarayonida yoki amaliy darslarda tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Muzeylarimizda xalqimiz aqlu zakovati, salohiyati, mahoratidan darak beruvchi juda ko‘p osori atiqalar jamlangan. Masalan, birgina Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida 2450 tadan ziyod eksponat namoyishga qo‘yilgan. Buxorodagi birinchi muzey tashabbuskori, jadid ajdodimiz Yo‘ldosh qori Po‘latov shu munosabat bilan 1922-yilda o‘tkazilgan marosimda “Biz bu yo‘lda g‘oyat oz ishlab, kichik bir narsani maydonga keltirdik. Xalqimizning boy o‘tmishi, ota – bobolardan qolgan madaniy meros o‘nlab muzeyga sig‘maydi”, degan ekan.

Ne baxtki, bu merosni o‘rganish, uning qadru qimmatiga yetish bizning avlod zimmasiga tushdi. Binobarin, muzeylarga tushish, farzandu nevaralarimizni o‘lmas qadriyatlarimizdan bahramand etishni burchimiz deb bilaylik. Zero, Abdulla Qodiriy ta’kidlaganidek, “Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlidir”.

Maktablarda muzey pedagogikasi bo‘yicha dasturlarni yaratish va amalga oshirish bo‘yicha muzey xodimi va maktab o‘qituvchisining hamkorligiga yo‘naltirilgan maktab o‘qituvchilari uchun maxsus kurslar tashkil etish zarurati paydo bo‘ldi. Buning uchun pedagogika oliy ta’lim muassasalarida pedagog-kadrlar tayyorlashda ularni ham maktab, ham muzeylarda ekspozitsiyalar bilan ishlash uchun o‘qitish masalasi va bu masalani yechishda muzeylarning hozirgi davrda ma’lum bir ta’lim muassasasi sifatida faoliyat yuritishiga ham to‘g‘ri keladi.



Maktablarda muzey pedagogikasiga doir ishlarni olib borish o'quvchilarning sohalar bo'yicha tasavurlarini boyitishda, bilimlarini mustahkamlashga ko'nikmalar hosil qilishlariga xizmat qiladi. Bu faoliyat ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, maktab o'qituvchilari bilan muzey xodimlari hamkorligida maktablarda tashkil etiladigan ma'ruzalar, tadbirlar, ochiq darslar, amaliy ko'rgazmali chiqishlar va boshqa mashg'ulotlarni o'z tarkibiga oladi. Lekin bu faqat muzey xodimlarining qo'shimcha tadbirlari tarzida tashkil etilibgina qolmasdan, ko'proq ma'naviy tadbirlar sifatida maktabning o'quv-tarbiyaviy ishlari bilan bog'liq holda tuzilgan rejalariga muvofiqlashtirilib, uzluksiz ravishda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Muzeylarning ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan muzey pedagogikasiga maktablar ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida qarash hozirgi davrda o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.. "Muloqot", № 5. 1998-yil.
2. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. T., 1997-yil.
3. Muzey zallari bo'ylab. Adabiyot muzeyi. T., 1996-y.
4. O'zbekiston Davlat Tabiat muzeyi. Muzey bo'ylab sayohat (Yo'l ko'rsatgich). Toshkent. 2001-y.